HAKIM TERMIZIY SO‘Z MA’NOLARINI SHARHLASHDA QUR’ON OYATLARIGA ASOSLANISHI

Fathiddin Muhammadjonov
Birlashgan Arab Amirliklarining Toshkentdagi elchixonasi tarjimoni

Received: 20.10.2025
Revised: 21.10.2025
Accepted: 22.10.2025

Kalit so‘zlar:
Hakim Termiziy, Qur’oni karim, hadis, semantika, so‘z ma’nosi, intertekstual yondashuv, majoziy tafakkur, pretsedent matn, leksik tafovut, islom tafakkuri.

Annotatsiya. Ushbu tezisda buyuk alloma Hakim Termiziyning so‘z ma’nolarini sharhlashdagi o‘ziga xos metodlari va ularning Qur’oni karim oyatlariga asoslanishi tahlil qilingan. Muallif Termiziy asarlaridagi – xususan, “al-Furuq va man‘u-t-taroduf” hamda “Tahsil nazoir al-Qur’on” nomli manbalardagi leksik birliklarning semantik farqlari, ma’no qatlamlari va ularning inson ruhiy-ma’naviy kamoloti bilan bog‘liqligini yoritadi. Tadqiqotda allomaning Qur’oni karim oyatlarini tahlil qilishda intertekstual yondashuv, majoziy tafakkur, hamda didaktik misollardan foydalanish uslubi ilmiy asosda tahlil etiladi.

Asosiy qism: Islom tafakkur tarixida o‘zining chuqur ilmiy-nazariy qarashlari, tasavvufiy-ma’naviy merosi va Qur’oni karim oyatlariga asoslangan tahliliy yondashuvlari bilan mashhur bo‘lgan alloma – Hakim Termiziy (to‘liq ismi: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy) – Markaziy Osiyo ilmiy tafakkurining yirik namoyandalaridan biridir. U o‘z davrida Qur’on va hadis ilmlarini chuqur o‘rganib, so‘z ma’nolarining mohiyatini tahlil qilish orqali islomiy-ma’naviy tafsirga o‘ziga xos yondashuvni shakllantirgan. Termiziyning asarlari, xususan, “Tahsil nazoir al-Qur’on”, “al-Furuq va man’-u-taroduf” singari manbalarda Qur’on oyatlaridagi leksik birliklarning nozik semantik farqlari, ma’no soyalarining tahlili, ularning inson ruhiyati bilan bog‘liqligi haqida chuqur mulohazalar bildirilgan.

Allomaning so‘z va ma’no haqidagi qarashlari Qur’oni karim oyatlariga tayangan holda ifoda etilgan bo‘lib, u oyatlarning sharhida faqat nazariy izoh bilan cheklanmay, balki amaliy hayotiy misollar orqali ularning ma’nosini yanada ravshanlashtirgan. Shu jihatdan Hakim Termiziy tafsirlarida majoziy tafakkur, didaktik misollar, hamda intertekstual tahlil usullari o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llangan. Uning asarlari orqali Qur’oni karim va hadislar o‘rtasidagi ma’naviy hamohanglik, inson axloqiy kamolotiga yo‘naltirilgan tazkiya g‘oyasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hakim Termiziy so‘zga doir o‘zining qarashlarini ifoda etish bilan bir qatorda, keltirilgan Qur’oni karim oyatlariga taalluqli islom shariatidagi hukmlar va tayanch tushunchalarni ham bayon qilib ketgan. U o‘zining “al-Furuq va man’u-t-taroduf” asarida Qur’oni karim Shuaro surasining 39-oyatini keltiradi:

{وَالَّذِينَ إِذَا أَصَابَهُمُ الْبَغْيِ هُمْ يَنتَصِرُونَ}

“O‘zlariga tajovuz yetganda nusrat qozonadiganlar uchundir”.

Oyat keltirilgach, ushbu oyat to‘g‘risida Ibrohim Naxaiyning fikri bayon etiladi. Ushbu oyatda nazarda tutilgan kimsalar xor bo‘lishni yoqtirmaydiganlardir. Ular obro‘lari, qadr-qimmatlari to‘kilishini yoqtirmaydigan kimsalardir. Chunki ular hidoyatda va Alloh taolo aziz qilgan zotlardir. Agar ularga xorlik yetsa, Alloh taolo aziz qilgan izzatga hamiyat va zafar keltirish o‘laroq qarshi kurashga qo‘zg‘alishlari aytiladi.

Ushbu mavzuga aloqador oyatlar keltirib bo‘lingach, Termiziy tomonidan ushbu oyatning mohiyati yanada tushunarli bo‘lishi uchun masal keltiriladi. Unda aytilishicha: “Yig‘im-terim ishlarida dehqon va chorvador qullardan bir amirning ikki quli bor edi. Biri birodariga zulm qildi. Zulm qilingani xo‘jayiniga xayrixohlik o‘laroq, xo‘jayini quliga mehribon bo‘lgani, xo‘jayini o‘z qulini jazodan qutqarishini uchun kechirishga qaror qildi. Amir mazlumning bu ishini maqtadi. Fikrini to‘g‘ri deb topdi. Mazlum zolimni jazolashga majburlamagani uchun unga yaxshi muomala qildi”. Ushbu masal banda birodarini kechirib yuborishi fazilatiga misol o‘laroq keltiriladi. Zulm qilingan birodarini jazolatishga haqqi bo‘lsada, bunday qilmadi. Balki uning aybini kechirib yubordi. Ushbu masal yuqorida zikr qilingan kim afv etib isloh qilsa, uning ajri Allohning zimmasidadir oyatiga ishora qiladi. Bu masalda oyatning ma’nosi jonli misol bilan tushuntirilib, majoziy ma’noda amir Alloh taologa, dehqon va chorvardor qul bandaga nisbat berilib tushuntirish o‘laroq bayon qilingan.

Umuman olganda allomaning so‘z ma’nolarini sharhlashda majoziy masallarni mohirona qo‘llashi uning o‘ziga xos uslubiyatini aks ettiradi.

Hakim Termiziy asarlarida so‘z ma’nolarini sharhlashda Qur’oni karim va hadisi shariflarga tayanishi, o‘z qarashlarini ushbu ikki muhim manba bilan asoslashi natijasida intertekstual matn hosil qilingan. Qur’oni karim oyatlari va hadislardagi voqealar yoxud hadislardan foydalanilishi asnosida sensatsiya matnlari vujudga kelgan. Termiziy asarni sharhlashda mashhur islom diniga taalluqli pretsedent birliklar, iboralar va matnlardan foydalangan.

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, alloma Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflar ayrim o‘rinlarda “aynan”, ayrim o‘rinlarda “qisman”, ularning mazmuni ham xuddi shu shaklda saqlangan holda berilgan. Pretsedent diniy matnlarning intertekstuallik xususiyat kasb etishi bilan bir qatorda, allomaning hadislarni matnda qo‘llash uslubiyati hadisning sanadlaridan ko‘ra ma’nolariga e’tibor qaratishi dominant ekanligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rasulov T. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 224 b.

2. Normurodov Yo. Sinonimlar semantikasi va uslubiyati. – Toshkent: Fan, 1993. – 200 b.

3. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Al-Furuq va man’-u-taroduf. M.Juyushiy nashrga tayyorlagan. Qohira: Iymon nashriyoti, 2005. – 328 b.

4. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali, Tahsil nazoir al-Qur’on. – Qohira: Dor al-kutub va al-vasoiq al-Misriya. ب Inv. № 19516/1. – 176 b.

5. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Tahsil nazoir al-Qur’on.– Iskandariya. Maktaba baladiya al-Iskandariya. Qo‘lyozma. Inv. № 3585/11. – 159 b.

6. Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit. Al-Fiqh al-akbar/S.M.Oltinxon To‘ra tarj. – Toshkent: Adolat, 2003. – 65 b.

7. Ahmad Abdurrahmon. Al-Fath ar-Rabboniy li-tartibi Musnadi al-Imom Ahmad. – Qohira: Dor ihyo at-turos al-arabiy. Nashr yili ko‘rsatilmagan. –T. 3.